MILLIY GVARDIYA BO‘LINMALARIDA PSIXOLOGIK XIZMATNI O‘RGANILISHI ZARURATI VA DOLZARBLIGI

Berdiyev Rustam Nizomiddinovich
Jamoat xavfsizligi universiteti Magistatura tinglovchisi
Ilmiy rahbar: p.f.b.f.d.(PhD), dotsent
Qoraboyev Abdulaziz Abduraxmonovich

Annotatsiya. Maqolada milliy gvardiya bo‘linmalarida psixologik xizmatni ilmiy o‘rganish zarurati va dolzarbligi pedagogik mahorat nuqtai nazaridan asoslanadi. Harbiy xizmatchi shaxsini rivojlantirish, harbiy jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitni sog‘lomlashtirish va stressga chidamlilikni shakllantirishda psixologik xizmatning o‘rni tahlil qilinadi. Harbiy psixolog va komandirning psixologik-pedagogik kompetentligi xizmat samaradorligini belgilovchi omil ekani ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: harbiy psixologiya, psixologik xizmat, pedagogik mahorat, stressga chidamlilik, harbiy jamoa.

Аннотация. В статье обосновываются необходимость и актуальность изучения психологической службы в воинских частях с позиций педагогического мастерства. Анализируется роль психологической службы в развитии личности военнослужащего, оздоровлении социально-психологического климата воинского коллектива и формировании стрессоустойчивости. Показано, что психолого-педагогическая компетентность военного психолога и командира является важным фактором эффективности службы.

Ключевые слова: военная психология, психологическая служба, педагогическое мастерство, стрессоустойчивость, воинский коллектив.

Abstract. The article substantiates the necessity and relevance of studying the psychological service in military units from the standpoint of pedagogical skill. It analyzes the role of the psychological service in developing a service member’s personality, improving the socio-psychological climate of a military unit and building stress resilience. The psychological and pedagogical competence of the military psychologist and the commander is shown to be a key factor in the effectiveness of the service.

Keywords: military psychology, psychological service, pedagogical skill, stress resilience, military unit.

Kirish

Xavfsizlik muhitining murakkablashuvi va axborot oqimining kuchayishi harbiy xizmatchi shaxsiga qo‘yiladigan talablarni oshirmoqda. Zamonaviy jangovar tayyorgarlik faqat texnika va jismoniy chiniqish bilan cheklanmaydi uning ajralmas

qismi ruhiy barqarorlik, o‘z-o‘zini boshqarish va jamoada hamkorlik qila olish qobiliyatidir O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2018-yil 20-may kuni Sharqiy harbiy okrugga qarashli harbiy qismga tashrifi chog‘ida armiya moddiy jihatdan ta’minlanayotgani va zamonaviy texnika bilan qurollantirilayotgani, ammo shaxsiy tarkibning ma’naviy-ruhiy tayyorgarligiga yetarlicha e’tibor berilmayotganini ta’kidlab, bu borada qaror ishlab chiqish topshirig‘ini berdi. Shundan so‘ng 2018-yil 4-avgustdagi

PQ-3898-son qarori bilan Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish vazifasi belgilandi. Demak, harbiy qismlarda psixologik xizmatni o‘rganish ehtiyoji nafaqat ilmiy, balki siyosiy-huquqiy asosga ham ega.

1. Psixologik xizmatning nazariy asoslari

O‘zbek psixologlarining ijtimoiy psixologiya bo‘yicha darsliklarida guruh va jamoa psixologiyasi, shaxslararo muloqot, ziddiyatlar hamda shaxsning ijtimoiy ta’sirlarni anglashi alohida yoritiladi. V.M.Karimova va hammualliflar bu jarayonlarni shaxs va ijtimoiy muhit o‘zaro ta’siri nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Bu yondashuv harbiy jamoaga to‘liq tatbiq etiladi: qism va bo‘linma-xizmatchilar ta’lim olib, tarbiyalanadigan va o‘zaro munosabatga kirishadigan ijtimoiy guruhdir. E.G‘oziyev tomonidan umumiy psixologiya asoslarida bayon etilgan psixik jarayonlar, holatlar va shaxs xususiyatlari to‘g‘risidagi bilimlar esa psixologik diagnostika va korreksiya uchun nazariy poydevor vazifasini o‘taydi. Shunga ko‘ra, harbiy qismdagi psixologik xizmat xizmatchilarning individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganish, jamoadagi muhitni diagnostika qilish, stressning oldini olish va zarur hollarda psixologik ko‘mak ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi.

Psixologik xizmatning jamoadagi o‘rni yana bir jihat bilan izohlanadi, harbiy jamoa a’zolari turli oila, hudud va ta’lim muhitidan kelgan yoshlardan tashkil topadi, ularning qadriyatlari, muloqot uslubi va stressga munosabati bir xil emas. Shuning uchun yagona tarbiyaviy tadbirlar bilan cheklanish yetarli bo‘lmaydi har bir xizmatchining individual xususiyatlarini inobatga oluvchi, ya’ni tabaqalashtirilgan yondashuv talab etiladi. Bunday yondashuvni ilmiy asoslangan diagnostika natijalarisiz amalga oshirib bo‘lmaydi.

2. Dolzarbligini belgilovchi omillar

- harbiy xizmat o‘ziga xos stress omillari bilan bog‘liq qat’iy tartib va ierarxiya, oiladan ajralish, yangi jamoaga moslashish, mas’uliyat yuki R.Lazarus va S.Folkman nazariyasiga ko‘ra, stressning oqibati omilning o‘zigagina emas, shaxsning uni qanday baholashi va qanday engish strategiyalarini qo‘llashiga bog‘liq. Demak, bu strategiyalarni o‘rgatish-pedagogik-psixologik ishning zarur qismi.

- ruhiy muammolar va yordamga murojaat qilish o‘rtasida tafovut mavjud C.Hoge va hamkasblarining AQSh armiyasi xizmatchilari ustidagi tadqiqotida Iroqdagi

jangovar harakatlardan so‘ng ishtirokchilarning qariyb oltidan bir qismida depressiya, tashvish yoki travmadan keyingi stress belgilari aniqlangan, ularning faqat 23-40 foizi yordamga murojaat qilgani qayd etilgan. Bu psixologik xizmat ishonchli, ochiq va profilaktikaga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerakligini bildiradi.

- axborot-psixologik xavfsizlik masalasi ortib bormoqda. M.Rahmonov harbiy ta’lim tizimida harbiy psixologik va intellektual tayyorgarlikni hamda zamonaviy to‘qnashuvlarga dosh beruvchi mafkuraviy immunitetni shakllantirishni jangovar tayyorgarlikning tarkibiy qismi sifatida ko‘rsatadi.

- 1992-yilgi Vazirlar Mahkamasi qarorida shaxsiy tarkib bilan ishlash bo‘yicha komandir o‘rinbosarlari lavozimi joriy etilgani bilan birga, bir qancha harbiy jamoalarda ma’naviy-ruhiy tayyorlash ishlari samarasiz olib borilayotgani qayd etilgan. Bu tarbiyaviy ishni ilmiy asoslangan, o‘lchanadigan psixologik-pedagogik tizim bilan to‘ldirish zarurligini tasdiqlaydi.

3. Pedagogik mahorat nuqtai nazaridan yondashuv

Psixologik xizmat mohiyatan pedagogik jarayondir. N.N.Azizxo‘jaeva pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahoratni uzviy bog‘liq holda ko‘rib, o‘qituvchi faoliyatini nafaqat bilim berish, balki texnika, muloqot va ta’sir ko‘rsatish ko‘nikmalari majmui sifatida talqin etadi. Bu qarash harbiy psixolog va komandir faoliyatiga to‘liq mos keladi kuzatuvchanlik, empatiya, pedagogik muloqot madaniyati va motivatsiya berish ko‘nikmasi xizmatchi bilan ishonchli aloqa o‘rnatishning asosidir. Harbiy xizmatchiga ta’sir ob’ekti emas, faoliyat sub’ekti sifatida qarash uning mas’uliyatini oshiradi va psixologik ko‘makka ishonchni mustahkamlaydi.

Komandir kundalik xizmatda xizmatchi bilan eng ko‘p muloqotda bo‘ladigan shaxs sifatida uning ruhiy holatidagi o‘zgarishlarni birinchi bo‘lib payqashi mumkin. Agar u pedagogik takt, e’tibor bilan tinglash va adolatli baho berish ko‘nikmalariga ega bo‘lsa, xizmatchi qiyinchiligini ochiq aytishga jur’at etadi. Shu bois psixologik xizmat diagnostika, profilaktika, korreksiya va rivojlantirish bosqichlarini o‘z ichiga olgan pedagogik tsikl sifatida va komandirlar bilan hamkorlikda tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Pedagogik mahorat nuqtai nazaridan psixologik xizmat samaradorligi to‘rt shartga bog‘liq.

- xizmat maqsadining aniq belgilanishi jangovar tayyorgarlikni mustahkamlash, xizmatchining ruhiy salomatligini saqlash.
- mutaxassisning kasbiy va shaxsiy sifatlari.
- usul va vositalarning xizmatchilar yoshi hamda xizmat sharoitiga mosligi.
- natijalarni muntazam baholash.

Bu shartlar bajarilmasa, hatto yetarli kadrlar va metodikalar mavjud bo‘lganda ham xizmat rasmiy ma’lumot to‘plash bilan cheklanib qolishi mumkin.

4. O‘rganish zarur bo‘lgan yo‘nalishlar

Muallif fikricha, ustuvor yo‘nalishlar: xizmat samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish; diagnostika metodikalarini milliy til va mentalitetga moslashtirish; harbiy psixologlar va komandirlarning psixologik-pedagogik kompetentligini oshirish; xizmatchilarning yordamga murojaat qilishiga to‘siq bo‘ladigan omillarni aniqlash.

Bu yo‘nalishlarni o‘rganishda kuzatuv, so‘rovnoma, suhbat, sotsiometriya kabi usullarni qo‘llash hamda natijalarni pedagogik tajriba bilan solishtirish mumkin. Kutilayotgan ilmiy-amaliy natija-harbiy qismlar uchun psixologik xizmatning mazmuni, mezonlari va kadrlar tayyorlash talablarini aniqlashtiruvchi tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Xulosa

Harbiy qismlarda psixologik xizmatni o‘rganish zarurati davlat siyosati darajasida ma’naviy-ruhiy tayyorgarlikka e’tibor kuchayganidan, xizmat faoliyatining stress omillaridan va xalqaro tadqiqotlar ko‘rsatgan muammolardan kelib chiqadi. Pedagogik mahorat asosida tashkil etilgan psixologik xizmat xizmatchining shaxsiy o‘sishini, jamoaning barqarorligini va jangovar tayyorgarlik sifatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Sharqiy harbiy okrugga qarashli harbiy qismga tashrifi president.uz, 20.05.2018. https://president.uz/oz/lists/view/1746

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi PQ-3898-son qarori «Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida». https://lex.uz/docs/3854496

3. Karimova V.M., Hayitov O.E., Akramova F., Lutfullayeva N. Psixologiya: darslik. – Toshkent: TDIU, 2007.

4. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. 1-kitob. – Toshkent, 2004.

5. Lazarus R.S., Folkman S. Stress, Appraisal, and Coping. – New York: Springer, 1984.

6. Hoge C.W. et al. Combat duty in Iraq and Afghanistan, mental health problems, and barriers to care // New England Journal of Medicine, 2004, 351(1), 13–22.

7. Rahmonov M.Z. Qurolli Kuchlar jangovor tayyorgarligini ta’minlashda harbiy ta’lim. – oriens.uz, 2021. https://oriens.uz/en/journal/article/qurolli-kuchlar-jangovor-tayyorgarligini-taminlashda-harbiy-talim/

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 23-sentabrdagi 445-son qarori. https://lex.uz/docs/-501968

9. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006.